

TOSHKENT VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGIGA KLASTER TIZIMINING JORIY ETILISHI

Urinova Nilufar Saydirasilovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

n.urinova@cspi.uz

Baxodirova Asal Shuhrat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

asalravshanova959@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, salohiyati va klasterlar joylashuvi bayon qilingan. Sohaning Respublika viloyatlariga nisbatan tutgan o‘rni, o‘zgarish holati, shuningdek klasterlarning tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Toshkent viloyati, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, klaster.

Abstract: the article describes the agricultural sectors, potential and location of clusters of the Tosahkent region. The role of the sphere in relation to the regions of the Republic , the state of change, as well as the analysis of clusters.

Keywords: Tashkent region, agriculture, fishing and forestry, farming, livestock, cluster.

Toshkent viloyati maydoni 15,26 ming kv. km bo‘lib, u mamlakatimiz umumiy hududining 3,4 foiziga tengdir. Mintaqa mamlakat qishloq xo‘jalik mahsulotining 13,1 foizini beradi, uning hududiy mahsuloti tarkibida esa bu makroiqtisodiy tarmoq 24,4 foizga teng. Qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlanishiga agroiqlimiy sharoit, mehnat resurslari, birmuncha suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligi, irrigatsiya infratuzilmasining barpo etilganligi hamda yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyasi ta‘sirida katta iste‘mol omilining mavjudligi sabab bo‘lgan. Viloyatda qishloq xo‘jaligida foydalanadigan yerlar 813,9 ming ga yoki umumiy yer maydonining 53,3 foiziga teng. Albatta, bu raqam, mintaqa qisman tog‘li hududlardan iborat ekanligi sababli, uncha katta emas. Sug‘oriladigan yerlar 339,0 ming ga bo‘lib, ular jami qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning 41,6 foizini tashkil qiladi. [1;114]

Toshkent viloyati respublikamizda nisbatan yuqori urbanizatsiyalashgan va sanoatlashganligi bilan bir qatorda katta agroiqtisodiy salohiyatga ham ega. Mintaqa mamlakat qishloq xo‘jalik mahsulotining 13,1 foizini beradi, uning hududiy mahsuloti tarkibida esa bu makroiqtisodiy tarmoq 24,4 foizga teng. Qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlanishiga agroiqlimiy sharoit, mehnat resurslari, birmuncha suv resurslari bilan yaxshi ta‘minlanganligi, irrigatsiya infratuzilmasining barpo etilganligi hamda yirik

shaharlar va shahar aglomeratsiyasi ta'sirida katta iste'mol omilining mavjudligi sabab bo'lgan.[1;106]

Viloyat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida dehqonchilik ustunlik qiladi (2020 y.- 58,8 %). Ushbu mahsulotning 35,7 foizini fermer xo'jaliklari beradi. Fermer xo'jaliklari asosan dehqonchilikda, xususan, paxta, bug'doy va boshqa ekinlarni yetishtirishda katta mavqega ega.

Poytaxt viloyatida qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar 813,9 ming ga yoki umumiy yer maydonining 53,3 foiziga teng. Albatta, bu raqam, mintaqa qisman tog'li hududlardan iborat ekanligi sababli, uncha katta emas. Sug'oriladigan yerlar 339,0 ming ga bo'lib, ular jami qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 41,6 foizini tashkil qiladi. Bunday maydonlar nisbati Zangiota, Quyichirchiq, Toshkent, Yangiyo'l tumanlarida katta, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlarida esa eng kichik. [3]

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 41,9 foiziga turli xil ekinlar ekiladi. Ekin maydonlari ko'p yoki intensiv qishloq xo'jaligi (dehqonchilik) rivojlangan tumanlar O'rtachirchiq, Quyichirchiq, Chinoz, Oqqo'rg'on, Bekobod kabilardir. Ayni paytda bunday yerlar ulushi Bo'stonliq (6,4 %), Ohangaron (17,3 %) va Parkent (20,7 %) tumanlarida sezilarli darajada past. Biroq, aynan shu hududlarda pichanzor va yaylovlar katta maydonlarni egallaydi.

Jami ekin maydoni 356,6 ming gektar, uning 85,2 foizi fermer xo'jaliklari tasarrufida. Donli ekinlar 156,6 ming ga yoki jami ekin maydonining 44,8 foizini egallaydi. 2020 yilda 721,7 (2019 y.-758,7) ming tonna turli xil don (asosan bug'doy – 618 ming tonna) yalpi hosili olingan. Donli ekinlar tarkibida 10 ming gektarga yaqin maydonda makkajo'xori ekilib, undan 62 ming tonnaga yaqin hosil olingan.[3]

Asosiy qishloq xo'jalik ekinlaridan paxta 105,4 ming gektarni egallaydi; yalpi hosil 255 ming tonna atrofida, hosildorlik 24,2 s/ga. Paxta ko'proq Bo'ka, Oqqo'rg'on, Piskent, Chinoz va Bekobod tumanlarida ekiladi. Sholi ko'rilayotgan yilda 5,7 ming gektarda yetishtirilgan (Bekobod tumani), yalpi hosil 27,0 ming tonna. Boshqa texnika va moyli ekinlardan keyingi yillarda masxar va kungaboqarning ham maydonlari kengayib bormoqda.

Ko'p millionli Toshkent shahri va Toshkent viloyati uchun katta miqdorda kartoshka va sabzavot yetishtirish talab etiladi. 2020 yilda 7,7 ming ga yerdan 269 ming tonna kartoshka olingan. Barcha turdagi sabzavotlarga esa 31,8 ming ga maydonlar ajratilgan bo'lib, 1299,1 ming tonna hosil yetishtirilgan. Sabzavot va kartoshkaga asosan Toshkent shahri atrofi xo'jaliklari, shuningdek, Bekobod, Piskent va Chinoz tumanlari ixtisoslashgan. Polizchilik ham tekislik hududlarda joylashgan qishloq tumanlarida ko'proq rivojlangan.

Toshkent viloyatida, xususan, tog'li hududlarda o'rnatilgan Bo'stonliq va Parkent tumanlarida bog'dorchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Oldingi yillarda bu qishloq xo'jaligi tarmog'i Yangiyo'l tumanida ham rivojlangan edi. Hozirgi vaqtda turli xil mevalar 18,7 ming gektardan 140 ming tonnadan ko'proq hosil olingan. Uzumchilik

ham bog‘dorchilik bilan birga hududiy tashkil etiladi. Uzum yetishtirishda Parkent tumaniga nafaqat viloyatda, balki respublikada ham raqobat yo‘q. Tahlil qilinayotgan yilda u 13 ming gektardan ko‘proq maydonni egallagan va 115 ming tonnadan ziyodroq hosil tayyorlangan.

Viloyatda chorvachilikning asosan sut-go‘sh t yo‘nalishi ko‘proq rivojlangan. Jami 630 ming bosh yirik shoxli qoramol, 645 ming bosh qo‘y va echkilar boqiladi. Otlar soni ham nisbatan ko‘proq – 40,2 ming bosh. 2020 yilda tirik vaznda 166 ming tonna go‘sh t, 568 ming tonna sut, 871 mln. dona tuxum, 1,6 ming tonna atrofida jun va 1,5 ming tonna pilla yetishtirilgan. Parrandachilik ko‘proq Qibray, Zangiota tumanlarida rivojlangan.

Qishloq xo‘jaligi geografiyasida Zangota (12,4), Bekobod (8,7 %), Qibray (8,3 %) tumanlari oldinda. Aholi jon boshiga hisoblaganda esa (o‘rtacha joriy narxda 794 ming so‘m har bir kishiga) Oqqo‘rg‘on, Bekobod, Yuqorichirchiq, Quyichirchiq, Chinoz va Piskent tumanlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Ularda bu ko‘rsatkich 1000-1100 ming so‘mga yetadi. [4]

1-jadval

Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududiy tarkibi
(viloyat jamiga nisbatan foizda, 2020 y.).

t/r	Tumanlar	Boshqli don	Sabzavot	kartoshka	meva	uzum	go'sht	sut	tuxum	yirik shoxli qoramol	qo'y va echkilar
1	Bekobod	9,7	12,8	6,7	4,4	0,9	6,8	9,7	1,7	8,1	4,0
2	Bo'stonliq	2,5	9,1	9,6	12,4	10,5	7,8	9,3	2,2	7,7	13,3
3	Bo'ka	12,1	1,6	3,8	1,7	0,3	6,1	6,5	1,7	8,1	6,4
4	Zangiota	1,6	8,2	6,3	8,0	5,3	7,6	6,0	13,1	5,2	2,2
5	Ohangaron	5,7	2,7	1,4	3,2	6,4	5,0	5,3	1,1	6,9	20,9
6	Oqqo'rg'on	8,1	6,0	4,6	3,7	0,7	5,5	6,5	2,4	7,0	3,3
7	Parkent	2,6	2,2	2,2	6,6	36,7	4,4	5,7	0,2	6,0	12,5
8	Piskent	8,3	5,0	11,2	1,6	1,7	5,1	6,3	3,5	6,2	5,9
9	Toshkent	1,6	6,3	7,8	7,4	9,2	5,0	5,1	6,2	3,4	1,6
10	Chinoz	6,0	8,7	11,6	3,5	1,1	5,8	5,9	1,9	5,9	4,1
11	Yuqorichirchiq	10,7	3,5	3,4	6,4	2,4	5,7	6,3	3,0	6,0	2,4
12	Yangiyo'l	6,0	9,6	5,8	17,3	9,4	5,9	6,3	3,8	6,3	5,4
13	O'rtachirchiq	10,6	5,9	6,6	2,0	0,9	8,9	5,7	12,5	6,6	5,4
14	Qibray	2,6	7,1	11,3	12,4	5,9	5,6	5,3	42,2	5,2	3,1
15	Quyichirchiq	11,8	4,8	5,4	2,9	4,1	4,6	6,4	2,8	5,8	1,6
	Shahar joylar	0,0	6,5	2,2	6,4	4,3	10,2	3,8	1,7	5,5	7,2

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi 2020 yil ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyatda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning hududiy tarkibi keltirilgan. Bu ma’lumotlarga ko‘ra g‘alla yetishtirishda Bo‘ka, Quyi Chirchiq, Yuqori Chirchiq va O‘rta Chirchiq tumanlari peshqadam. Sabzavot bo‘yicha Bekobod, kartoshkada Chinoz, Piskent, Qibray ajralib turadi. Bog‘dorchilik Yangiyo‘l, Qibray va Bo‘stonliq tumanlarida rivojlangan; ularning hissasi viloyatda yetishtirilgan mevalarda 42,1 %. Uzumchilik esa Parkent tumanidan tashqari (36,7 %) Bo‘stonliq tumanida ham qisman rivojlangan. Mazkur ikki tuman viloyat uzumining yarmiga yaqinini beradi.

Chorvachilik geografiyasida ham ancha farqlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, yirik shoxli qoramollar Bekobod va Bo‘ka, qo‘y va echkilar esa Ohangaron va Bo‘stonliq tumanlarida ko‘proq boqiladi. Bu tog‘ va tog‘oldi hududlarda joylashgan tumanlarga viloyat qo‘y va echkilarining 1/3 qismidan ortig‘i to‘g‘ri keladi.

Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida Bekobod tumanining ulushi 9,7 %ni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Bo‘stonliq (8,1 %), Quyi Chirchiq (7,8 %) va Oqqo‘rg‘on (7,3 %) tumanlari keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Yangiyo‘l (0,1 %), Nurafshon (0,3 %) va Olimaliq (0,2 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Viloyatda, 2020 yil yakunlari bo‘yicha, jami 6034 ta fermer xo‘jaliklari qayd etilgan, umumiy yer maydoni 454 ming ga, ishchi va xizmatchilar soni 121 ming kishi. Har bir fermerga o‘rtacha 75,2 ga yer va 20,0 kishidan ishchi to‘g‘ri keladi. Yer maydoni ko‘rsatkichlariga qaraganda eng katta maydonlar O‘rtachirchiq, Bekobod, Bo‘stonliq, Chinoz tumanlarida kuzatiladi. Jumladan, Bo‘stonliq tumanida har bir fermerga 136,5 ga yer to‘g‘ri keladi (bu tuman qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuviga bog‘liq). Yuqoridagi qolgan tumanlarda mazkur ko‘rsatkichlar 80 gektardan ortiqroq. Ayni vaqtda Qibray va Zangiotada, ya‘ni Toshkent shahri atrofi xo‘jaliklarida fermerlarning yer maydoni eng kam (mos holda 32 va 28 gektardan). Ishchi xodimlar soniga ko‘ra yuqori ko‘rsatkichlar Quyichirchiq va Bo‘ka tumanlarida. Ularda tashkil etilgan fermer xo‘jaliklarining har birida 40-42 kishidan ishchi band.

Xo‘jaliklar tomonidan 1 069,2 ming tonna sabzavot yig‘ib olindi. Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 375,1 ming tonna kartoshka qazib olindi, 115,2 ming tonna meva va rezavorlar yetishtirildi. [4]

2-jadval

Toshkent viloyatida qishloq xo‘jaligining asosiy ko‘rsatkichlari

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni, gektar	353276	353469	299621	304542	271162	298166	290296	295760,5

Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	10735,5	12034,2	15594,8	18359,1	20417,1	23875,1	29538,3	33010,8
shu jumladan:								
dehqonchilik	5758,0	5994,7	8111,3	8870,0	9997,1	10831,0	13965,4	16283,3
chorvachilik	4977,5	6039,5	7483,5	9489,1	10420,0	13044,1	15572,9	16727,4
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	103,3	101,9	96,9	98,8	101,1	100,1	104,1	104,2
shu jumladan:								
dehqonchilik	100,6	98,9	88,8	95,5	101,6	100,5	104,5	106,0
chorvachilik	106,2	105,4	105,0	102,3	100,6	99,7	103,8	102,7

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi 2022 yil ma'lumotlari asosida tuzilgan.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish va sohaga bozor mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yildi, klasterlarga ajratilgan qishloq xo'jaligi maydonlarining hajmi ekin turlari bo'yicha paxta-to'qimachilikda – 67 foizni, chorvachilikda – 8 foizni, meva-sabzavotchilikda – 7,5 foizni tashkil etmoqda.

Klaster usulida yetishtirilgan xomashyoni qayta ishlash uni tayyor mahsulot ko'rinishida iste'molchiga yetkazib berish imkonini bermoqda. [3]

Bugungi kunda respublikamizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari dunyoning 66 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda. 2010 yilda eksportning 11,3 foizi paxta tolasi hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2018 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,6 foizgacha kamaydi.

Toshkent viloyatida 2018-2021 yillarda barcha sohalarga klaster tizimi keng joriy etildi. Xususan, viloyatda 50 ta agroklasterning faoliyati yo'lga qo'yilib, ularga fermerlar biriktirilayotgani o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar barqarorlashishi, raqobatbardoshlikni oshishiga mustahkam zamin bo'lmoqda.

Birgina viloyatda faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 2021-2025 yillar davomida umumiy qiymati 1 trln. so'mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, qishloq hududlarida 2,1 ming nafar ishsiz fuqaroning bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Masalan, O'rta Chirchiq tumanida faoliyat olib borayotgan "Ko'kcha Textil" MCHJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarish bo'yicha yilik quvvati

6,5 ming tonna bo'lgan, qiymati 140 mlrd. so'mlik yangi loyihani ishga tushirish hisobiga 1050 ta yangi ish o'rni yaratilayapti.

2020-2021 yillarda meva-sabzavotchilik klasterlari tomonidan ham o'tgan davrga nisbatan mahsulot yetishtirish hajmi 115,6 foizga oshganini kuzatish mumkin. Ular tomonidan 35,4 mln. dollarlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi, shuningdek, viloyatda 2021 yilda umumiy quvvati 13 ming tonna va saqlash sig'imi 10 ming tonnaga ega bo'lgan 2 ta agrologistika markazi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Joriy yilda g'alla yetishtirish 100 foiz klaster usulda amalga oshirilishi hisobiga o'tgan yillarga nisbatan yalpi hosil 1,2 barobarga, hosildorlik esa 7-8 sentnerga oshdi. 2022-2025 yillarda viloyatda sholichilik, pillachilik yo'nalishidagi klasterlar tomonidan ham yana 3 mingga yaqin ish o'rinlari yaratish rejalashtirildi.

Yana bir e'tiborga molik jihat — klaster usuli yo'lga qo'yilganidan so'ng sohaga 762,2 mlrd.so'mlik 4609 ta zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari xarid qilinishi evaziga hosildorlik ham, daromad ham oshganligini ko'rish mumkin.

Viloyatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish borasida klaster tizimini yo'lga qo'yish o'z samarasini berayotganini inobatga olib, hozirda 8 ta tumandagi fermer xo'jaliklari klasterlarga birlashtirilgan [1;102].

Birgina Bekobod tumanida jami 12 ming 500 gektar maydonda paxta va 14 ming 800 gektarda g'alla yetishtiriladi. Shundan 6700 gektar paxta, 5000 gektar g'alla maydoni klaster tizimiga ajratilgan. 250 dan ortiq fermer xo'jaliklari klasterlar bilan shartnoma tuzgan holda faoliyat olib bormoqda. Viloyat hokimning 2021-yil 16-sentyabrdagi qarori bilan 2022-yil hosili uchun tumanda fermer xo'jaliklari boshqolq don yetishtirish bo'yicha g'allachilik klasterlari bilan shartnomalar tuzishdi.

Bir so'z bilan aytganda, klaster tizimi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab olmoqda. Zamon talabiga mos odimlash esa hamisha barcha jabhalarda yutuq va samaralar garovi bo'lib kelgan. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyatda qishloq xo'jaligidagi barcha tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish, ularning shakllanishini rag'batlantiruvchi institutlarni rivojlantirish, shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishni ta'minlaydigan klasterlar va klaster tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va chora-tadbirlar asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Soliyev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). -T.: Universitet, 2014.
2. O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni-10.01.2023 yildagi PF-2-son: Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

3. O‘zbekiston Respublikasining yer fondi. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi, 2020.
4. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari (www.toshvilstat.uz). –T., 2022y.
5. Urinova, N. (2023). TALABALARNING GEOGRAFIK KASBBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. *Tadbirkorlik va pedagogika*, 1 (2), 162-166.
6. Urinova, N. S. (2022). Principles of using new educational technologies in teaching geography to school students. *Global Scientific Review*, 8, 101-106.
7. Urinova, N. S. va Jo'raeva, L. V. (2023). O 'ZBEKISTONNING TURISTIK SALOHIYATI VA RIVOJLANSIH ISTIQBOLLARI. *IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 6 (5).